

## RAVISHNI YOMON KO`RAMAN ! (YOHUD RAVISHNI O`QTISHDAGI MUAMMOGA YECHIM )

Ma`rufbek Azimqulov

*Guliston davlat universiteti “Lingvistika” (O`zbek tili)  
yo`nalishi magistranti*

Qadimgi hindlar davridan rivojlanishda bo`lgan tilshunoslik fani keying davrda arablar , yunonlar va ruslar tomonidan yaxshigina sayqal topdi. Bu borada o`zbek tilshunoslari va turkologlarining ham xizmatlari beqiyos. Har bir fanning to`liq yechimini topmagan , o`rganilishi oxiriga yetmagan , o`rganilgan bo`lsa-da o`rgatilish metodikasi qiyin bo`lgan jihatlari bo`ladi.

Tilshunoslik fanida , bizningcha , ravish (adverbial) turkumida o`qirmanlar shunday muammoga duch kelishadi. O`zbek tilshunosligining katta vakillari , xususan , A.G`ulomov , A.Hojiyev , G`.Abdurahmonov , SH.Rahmatullayev kabi tilshunoslarning ishlarida bu mavzuga yetarlicha to`xtalib o`tilgan. Ushbu maqolamizda biz ravishning boshqa turkumlardan farqlari haqidafikrlarimizni bayon qilmoqchimiz.

Avvalo , “O`zbek tili grammatika”sida ravishga quyidagicha ta`rif berilgan : “Ravish - ish -harakatning belgisini bildirib , uning o`rni , payti , miqdori , darajasi , sababi , maqsadi kabi ma`nolarni ifodalaydi. Ravish - o`zgarmas so`z turkumi . Uning o`zgarmasligi o`zgartiruvchilarni qabul qilmasligida , qabul qilsa-da qotib qolishidadir” (O`zbek tili grammatikasi I kitob 528-bet)

O`rganilgan ravish haqidagi maqola va adabiyotlarda ravishga ayni ta`rif va ayrim mulohazalar berilgan. Ushbu maqolada ravishni maktab ta`limida o`quvchiga osonroq va soddaroq tushuntirish bo`yicha o`z tavsiyalarimizni bermoqchimiz .

### **Birinchi masala :**

Ko`pchilik ravishni sifat bilan farqlash qiyin deb o`ylashadi . Bu biroz noto`g`ri fikr. Ravish turkumini butun boshli sifat bilan kesishtirish , qiyoslash noto`g`ri. Bu ikki turkum orasidagi o`xshashlik faqatgina **holat ravishi va xususiyat sifati** orasidagina kuzatiladi.

**Holat ravishlari :** zo`rg`a , majburan , bafurja , mardona , erkakchasiga , otalarcha , tiriklayin , oliftanamo , arang , zimdan , to`satdan , qiyg`os , paydar-pay ;

**Xususiyat sifati :** odobli , go`l , bezbet , yoqimtoy , muloyim , yaxshi , ziyrak , sodiq , tannoz , shallaqa , ochiq , o`tkir ;

Holat ravishi va xususiyat sifati qanday ? so`rog`ini qabul qilish jihatdan o`xshash. Shunday vaziyatda bu ikki turkum so`zni farqlashning eng yaxshi yechimi bu so`zlarga **egalik , kelishik** qo`shimchasini qo`shishdir.

Demak , **egalik , kelishik** ni qabul qiladigan so`zlarni xususiyat sifati , qabul qilmaydiganlari holat ravishi bo`lsin.

(Yoqimtoy + i = xususiyat sifati / zo`rg`a +si = holat ravishi )

### **Ikkinchi masala :**

Ravish turkumiga “**noaniq turkum**” atamasini qo`llashni tavsiya qilamiz. Ravish holat ravishidan boshqa barcha ma`nolarni **noaniq va umumiy** ifodalaydi.

1.O`rin ravishning o`rin otidan farqi.

<b>O`rin ravishi</b> (noaniq o`rinni ifodalaydi)	<b>O`rin oti</b> (aniq o`rinni ifodalaydi)
<b>O`sha yerda ko`rishamiz.</b>	<b>Maktabda ko`rishamiz.</b>

2.Payt ravishining payt otidan farqi .

<b>Payt ravishi</b> (noaniq paytni ifodalaydi)	<b>Payt oti</b> (aniq paytni ifodalaydi)
<b>Yaqinda</b> sen talaba bo`lasan.	<b>Kuzda</b> sen talaba bo`lasan.

3.Miqdor - daraja ravishining miqdor sondan farqi

<b>Miqdor ravishi</b> (noaniq miqdor ifodalaydi)	<b>Miqdor son</b> (aniq miqdor ifodalaydi)
<b>O`tgan yili kam</b> ball to`pladim.	<b>O`tgan yili 100 ball</b> to`pladim.

4.Sabab ravishining boshqa sabab bildiruvchi so`zlardan farqi.

<b>Sabab ravishi</b> (noaniq sababni ifodalaydi)	<b>Sabab bildiruvchi boshqa so`z</b> (aniq sabab ifodalaydi)
<b>Noilojlikdan</b> darsga kelmadi.	<b>O`qimagani uchun</b> darsga kelmadi.

5.Maqsad ravishining maqsad bildiruvchi boshqa so`zdan farqi.

<b>Maqsad ravishi</b> (noaniq maqsadni ifodalaydi)	<b>Maqsad bildiruvchi boshqa so`z</b> (aniq maqsad ifodalaydi)
<b>Ataylab</b> kechikdi.	<b>O`qish uchun</b> keldi.

Ravish haqidagi ushbu mulohazalar faqat turkumlar tasnifida qo`llansa , maqsadga muvofiq bo`ladi.Hol mavzusiga ushbu qoidani qo`llash o`rinsizdir.